


VOLUME #3
ISSUE#3,
MART 2025



**«YANGI O‘ZBEKISTONDA
TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR» RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIIY
KONFERENSIYASI**



**Research Science and
Innovation House**

 <https://universalpublishings.com>
editor@universalpublishings.com

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER



**«YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR» RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI.**

31.03.2025-yil.

Ushbu to'plamda « **YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR**» ilmiy konferensiyasi 2025-yil 3-soni 3-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.


Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Zenodo, Open Aire, Google
Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Konferensiya materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



**“RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION
HOUSE” MCHJ**

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir: Eshqarayev Sadridin Chorievich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrasini mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O'zbekiston.

Mas'ul kotib: Boboyorov Sardor Uchqun o'g'li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali magistranti

Nashrga tayyorlovchi: Eshqarayev Samariddin Sadridin o'g'li Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti magistranti

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Texnika fanlari muharriri, Eshqarayev Ulug'bek Chorievich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasini dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O'zbekiston.

Texnika fanlari muharriri Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Kimyo fanlari muharriri Mirabbos Xojamberdiev Ikromovich- Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

Kimyo fanlari muharriri, Eshqurbonov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Iqtisodiyot fanlari muharriri Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri, Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, ijtimoiy-gumanitar fanlar doktori, Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Otamurodov Furqat Abduraimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, Termiz, O'zbekiston tibbiyot fanlari falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston.

Biologiya fanlari muharriri Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali. Termiz, O'zbekiston, biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Sotsiologiya fani muharriri Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa sotsiologiya fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Jo'rayeva Ramziya Abdurahimovna Qo'qon davlat pedagogika instituti. Qo'qon, O'zbekiston filologiya fanlari doktori (PhD), katta o'qituvchi.

Fizika-matematika-fanlari muharriri Bobamuratov Ulug'bek Erkinovich Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O'zbekiston.

**"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR" RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIY KONFERENSIYASI**
Volume 3, Issue 3, Mart 2025

Tibbiyot fanlari muharriri Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tibbiyot fanlari muharriri Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrasini mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

Gumanitar fanlar muharriri Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma'naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)

ПРОБЛЕМА ЛИЧНОСТИ В ПСИХОЛОГИИ

Ибрагимова Нозима Дилшодовна

Tashkent University of Applied Sciences

Факультета педагогики и психологии

3 курса 10 группы

Аннотация: Мы можем относиться к этому тесту с некоторой неудобством, учитывая контекст, в котором мы обычно его принимаем. И это было как вызовом, так и решающим фактором в нашей научной и профессиональной жизни.

Ключевые слова: личность, подходы, индивид развития личности, жизнь, кризис, дискуссия

Проблема личности в психологии — одна из центральных. Её изучают с точки зрения внутреннего строения, закономерностей возникновения, формирования и развития, особенностей социально-психологических проявлений, роли в этом природных, биологических (наследственных), социальных и других обстоятельств.

«Личность ≠ индивид; это особое качество, которое приобретается индивидом в обществе, в целокупности отношений, общественных по своей природе, в которые индивид вовлекается. (...) Иначе говоря, личность есть системное, и поэтому “сверхчувственное” качество, хотя носителем этого качества является вполне чувственный, телесный индивид со всеми его врожденными и приобретенными свойствами. Они, эти свойства, составляют лишь условия (предпосылки) формирования и функционирования личности, как и внешние условия и обстоятельства жизни, выпадающие на долю индивида». Личность и индивид представляя собой единство, тем не менее, не тождественны друг другу. Личность, являясь особым «системным качеством» индивида, раскрывается в трех пространствах «психологического измерения».

Некоторые базовые проблемы психологии личности:

Проблема структуры личности. Тесно связана с принципом системности, который предполагает исследовать объект с точки зрения его иерархического строения и типов связи между отдельными уровнями. [2](#)

Проблема мотивации поведения. Основана на принципе активности и связана с решением круга вопросов о классификации мотивов, изучении динамики мотивационного процесса и соотношении мотива и цели.

Проблема развития личности. Источником развития личности являются условия её жизни, социально-исторический контекст

Проблема психического здоровья и психопатологии. Касается критериев здоровой личности и стратегий диагностики заболевания.

Проблема личности в психологии — одна из ключевых и самых сложных. Она охватывает множество вопросов, связанных с пониманием сущности, структуры, становления и развития личности. Психология личности изучает, что делает человека уникальным, как формируются его убеждения, поведение, мотивация и эмоциональные реакции. Проблема личности заключается в определении ее природы, границ и факторов, влияющих на формирование.

Основные подходы к изучению личности:

1. Психоаналитический подход (З. Фрейд, К. Юнг, А. Адлер)

Рассматривает личность как результат взаимодействия сознательных и бессознательных процессов. Особое внимание уделяется детским переживаниям и внутренним конфликтам.

2. Гуманистический подход (А. Маслоу, К. Роджерс)

Считает личность стремящейся к самоактуализации и самореализации. Подчеркивает свободу выбора, индивидуальность и внутренние ресурсы человека.

3. Когнитивный подход (Дж. Келли, А. Бандура) Изучает когнитивные процессы (мышление, восприятие) и их роль в формировании личности. Особое внимание уделяется убеждениям и социальному обучению.

4. Бихевиористический подход (Дж. Уотсон, Б. Ф. Скиннер) Рассматривает личность как совокупность привычек и реакций, сформированных в процессе обучения и воздействия среды.

5. Черты личности и типологии (Г. Айзенк, Р. Кеттел)

Исследует устойчивые черты личности и выделяет типы людей на основании их психологических особенностей.

Проблемы и дискуссии:

1. Единство и целостность личности. Как согласовать множество различных качеств в одном человеке?
2. Свобода воли и детерминизм. Насколько наши поступки свободны, а насколько они предопределены биологическими, социальными и психологическими факторами?
3. Соотношение врожденного и приобретенного. Что больше влияет на личность — генетика или воспитание и среда?
4. Самоидентичность и кризис идентичности. Как человек формирует свою идентичность и что происходит в периоды жизненных кризисов?

Список литературы

1. Агейкин, Д.И. Датчики контроля и регулирования / Д.И. Агейкин. Изд-во «Машиностроение». - М., 1965. - 416 с.;
2. www.vibrobit.ru;
3. www.sensorica.ru;
4. www.maxparts.ru;
6. ГОСТ 7470-92. Глубиномеры микрометрические. Технические условия. М.: Издательство стандартов. 1992 - 8с.

O'RTA VA UZOQ MASOFALARGA YUGURISH TAHLILI

Ashurov Raxmatillo Quvondiqovich, o'qituvchi,

Jumayev Asatillo Ro'zimurodovich

e-mail: ashurovraxmatillo@gmail.com

Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotasiya

Ushbu maqolada o'rta va uzoq masofalarga yugurish tahlili, tayyorgarlik jarayoni va muvaffaqiyatga erishish uchun muhim omillar haqida batafsil ma'lumot beriladi. O'rta va uzoq masofalarga yugurish insoniyat tarixida qadimdan mavjud bo'lib, dastlab ovchilik va omon qolish uchun muhim vosita sifatida shakllangan. Qadimgi Yunonistonda marafon yugurishi afsonaviy Feidippidning jasorati bilan bog'liq bo'lib, bu sport turi Olimpiya o'yinlarining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. O'rta asrlarda yugurish harbiy tayyorgarlik va elchilik xizmati uchun ahamiyatli bo'lgan.

Kalit so'zlar: *o'rta va uzoq masofalarga yugurish, tahlil, insoniyat tarixi, muvaffaqiyatga erishish, ovchilik, sport, omon qolish uchun muhim vosita, jismoniy tayyorgarlik, marafon yugurishi, afsonaviy Feidippid, Olimpiya o'yinlari, yengil.*

Kirish. Zamonaviy atletikaning rivojlanishi XIX asr oxiriga borib taqaladi. 1896-yilda o'tkazilgan birinchi zamonaviy Olimpiya o'yinlarida o'rta va uzoq masofaga yugurish rasman sport turi sifatida tan olingan. XX asrda esa sportchilar jismoniy tayyorgarlik, ovqatlanish va texnologiyalardan foydalangan holda natijalarini sezilarli darajada yaxshiladilar. Bugungi kunda o'rta va uzoq masofalarga yugurish eng nufuzli sport yo'nalishlaridan biri bo'lib, marafon, yarim marafon va stadion yugurishlari kabi turlari ommalashgan.

O'rta va uzoq masofalarga yugurishning rivojlanish insoniyat tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Ibtidoiy jamoa tuzum davrida insonlar kundalik ehtiyojlarini qondirish va yashash uchun kurash asnosida hayvonlarni ov qilganlar va turli xavf-xatarlardan o'zlarini olib qochganlar. Xususan, turli masofalarga yugurish, har xil buyumlarni uzoqqa va nishonga uloqtirish kabi amaliy harakatlardan iborat mashg'ulotlar bilan faol shug'ullanib kelganlar.

Qadimgi grek afsonalarida aytilishicha, qadimgi yunon pahlavoni Gerakl qirol Avgiem ustidan qozonilgan g'alaba sharafiga aka-ukalar o'rtasida yugurish musobaqasini tashkil etgan. Bu yugurish musobaqasi o'tkazish joyini 600 oyoq panjasi bilan o'lchab chiqib, bu masofani uzun stadion, ya'ni stadiy nomi bilan atagan. Stadion 192,27 m teng bo'lib, dastlabki yugurish musobaqalari ushbu stadiona o'tkazila boshlagan. O'rta masofaga yugurish Gipiy uzoq masofaga yuguruvchilarni giplitodramoslar deb atalgan. Bizgacha etib kelgan qadimiy qo'lyozmalarda yozilishicha Olimpiada o'yinlari qadimdan o'tkazilib kelinganligi haqida ma'lumotlar berilgan. Yugurish musobaqalari eramizdan avvalgi 776 yillarda ham o'tkazilganligi haqida ushbu qo'lyozmalarda ma'lumotlar qoldirilgan. 1580 yillarda ham qadimiy Yunonistonda va Yevropa mamlakatlarida Afina va Angliya davlatlarida musobaqalar tashkil qilib o'tkazilganligi haqida ma'lumotlar berilgan. 1850 — 1870 yillar davomida ham yengil atletika turlari jahon bo'ylab rivojlana boshlagan.

Yengil atletika turlarini rivojlanishi manbalarda berilishicha, O'rta-yer dengizi qirg'oqlaridan emas, balki Britaniya orollaridan boshlab rivojlana boshlaganligi haqida XII asrlarda yozib qoldirilgan bitiklardan bizga ma'lum. Yugurish turlarini rivojlanishi hamda ommalashishi haqida rossiyalik A. I. Jilkin va boshqa olimlar tomonidan berilgan ma'lumotlarda 1770 yillarda birinchi bor soatbay yugurishda 1 soat davomida 17 km 300 m natija qayd etilganligi berilgan. Keyinchalik XVIII asr o'rtalaridan boshlab Angliyaning London shahrida yugurish bo'yicha musobaqalar o'tkazilganligi haqida bir qancha ma'lumotlarda bayon etilgan. Angliyaning London shahri kollej o'quvchilari o'rtasida har xil masofalarga 1 yard; 4 yard, 2 milya masofalarga yugurish turlaridan musobaqa o'tkazilganligi olingan manbalardan bizga ma'lum. 1869 yillarda havaskor engil atletika klublari Angliyada tashkil etila boshlagan, keyinchalik dunyoning ko'pgina davlatlarida ham havaskor engil atletika klublari ochilgan. 1888 yilda Rossiyada Peterburgning Tyaplevo shaharchasida birinchi bor "Havaskor engil atletika" klubi ochiladi. Italiya, Fransiya, Avstraliya, Germaniya, Finlyandiya, Chexiya kabi davlatlarda ham "Havaskor yengil atletika" klublari tashkil qilinadi va shu davrlardan boshlab ilk bora yengil atletika klublari o'z faoliyatlarini boshlaganlar.

Gresiyaning Afina shahrida 1896 yilning 6 — 15 aprel kunlari o'tkazilgan. I Olimpiada o'yinlari dasturidan yengil atletikaning o'rta va uzoq masofalarga yugurish turlari o'rin olgan. Lekin 800-1500 m. masofalarga yugurish turidan sportchilar ishtirok etishgan. 5000-1000 m.

masofalarda sportchilar bo'lmaganligi uchun o'tkazilmagan. Ushbu Olimpiyada o'yinlarining 800-1500 m. masofalarida Avstraliyalik sportchi Flek E. g'alaba qozongan.

1900 yilning 20 may – 28 oktyabr oylarida Fransiyaning Parij shahrida o'tkazilgan II Olimpiada o'yinlaridan yengil atletikaning o'rta va uzoq masofalarga yugurish turlaridan medallar uchun kurashgan Buyuk Britaniyalik A. Tizou 800 m va Ch. Bennet 1500 m masofada g'olib chiqqanlar. G'olib yengil atletikachilar Kontinental musobaqalarda ham bir necha bor mamlakat chempionati g'olib va sovrindori bo'lishgan. Keyinchalik dunyoning barcha mamlakatlarida o'rta va uzoq masofaga yuguruvchilarni tarbiyalab xalqaro musobaqalarga olib chiqishgan.

O'rta masofaga yugurish turlari 1904 yilda o'tkazilgan Olimpiada o'yinlarida 800-1500 m masofalarga yugurish turlaridan Amerika qo'shma shtatlari vakili 800 m 1:56,0 va 1500 m masofalarda D. Laytbodi 4:05,4 natija bilan Olimpiada chempioni bo'lgan.

XIX asrning 1990 yillariga kelib dunyoda o'rta masofalarga yugurish turlari rivojlana boshlagan. Amerika Qo'shma Shtatlari sportchilaridan – D. Laytbodi, M. Cheppard, D. Mexidit, angliyalik sportchilardan A. Jekson, A. Xill, fransiyalik J. Gilyamo, Finlyandiyadan Paavo Nurmi kabi etuk o'rta va uzoq masofalarga yuguruvchi sportchilar turli davrlarda Olimpiyada o'yinlari, mamlakat birichiligi musobaqalarida g'olib bo'lishgan.

1920-1930 yillarda finlyandiyalik dunyoga mashhur sportchi Paavo Nurmi uzoq masofalarga yugurishda jahon rekordlarini ko'p bor yangilagan sportchi sanaladi. Keyinchalik 1936-1942 yillar oralig'ida o'rta masofalarga yuguruvchilar safi yana bir sportchi germaniyalik Rudolf Xarbig bilan boyigan. U 800, 1500 m masofalarga yugurish turlaridan jahon rekordini o'rnatgan sportchi hisoblanadi.

1945-1956 yillar o'rtalarida daniyalik sportchi Gunnar Nils Nilson jahon sportiga o'zining yuqori texnikasi va yuksak sport natijalari bilan kirib kelgan. Shu davrda Gunnar Nilsonga teng keladigan o'rta va uzoq masofalarga yuguruvchi sportchi bo'lmagan. U 1500 m masofani 3:40,8 natija ko'rsatib jahon rekordini yangilagan. 1950-1960 yillarda G'arbiy Germaniya vakili Gerbert Missalla, amerikaliklardan Tomas Dj. Merfi, M. Uitfeld, T. Kurtney, lyuksemburglik J. Bartel, chexoslovakiyalik E. Zatopek, irlandiyalik R. Delaney, "Sobiq Ittifoqida" V. Kuts, yangi zellandiyalik P. Shnell, M. Xelberg, avstraliyalik X. Yelliot, shu davrning eng kuchli sportchilaridan sanalgan. Yuqorida nomlari zikr etilganlar jahon chempionlari va ushbu turlarda rekord o'rnatgan sportchilardan hisoblanishgan.

1970-80 yillarda Jahon yengil atletikasida juda ko'plab yosh iqtidorli sportchilar yetishib chiqdilar. Ulardan P. Balotnikov, R. Sharafutdinov, S. Koe, X. Rono, Ivan Damme kabi jahon va Olimpiada chempionlari hamda jahon rekordchilari unvonini qo'lga kiritishgan. 1980-1990 yillar o'rtalarida Afrika qit'asi vakillari ham jahon yengil atletika sportiga yuqori sport natijalar bilan kirib keldi. Ulardan S. Auita (Marroka), S. Koskey (Keniya), portugaliyalik F. Mamede, K. Lopeshlar, A. Leytau, germaniyalik X. Kuntse kabi iqtidorli sportchilar o'rta va uzoq masofalarni yanada rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shganlar.

1990-2000 yillar oralig'ida juda ko'plab iqtidorli sportchilar bilan jahon yengil atletikasi safi kengaydi. Ulardan P. Ereng Keniya, marokalik Kalid Skax, Xammu Butaib, Braxim Butaib, Moxamed Issangar, J. L. Barbosa (Braziliya), U. Tanui, B. Konchellax (Keniya) A. Sudnik (Rossiya), D. Bauman, D. Ondieka, (Keniya), Abele Bekeli (Efiopiya) kabi yetuk sportchilar jahon sportiga o'z hissalarini qo'shishdi.

2000-2014 yillarda jahon yengil atletika sportiga juda ko'plab yosh iqtidorli sportchilar kelib qo'shilishdi. 800 m. masofalarda Uilfred Bungey (Keniya), Yassef Kamel (Baxrayin), Mbaulin Mulaudzi (JAR), Yuriy Borzakovskiy (Rossiya), Alan Uebb (AQSh), jahon rekordchisi Devid Rudisha (Keniya). Jahonda 1500, 5000, 10000 m masofalarga yugurish bo'yicha rekordchi Efiopiyalik Keninisa Bekele bir necha bor xalqaro musobaqalar va olimpiada o'yinlari g'olib va sovrindori bo'lgan. Jahon yengil atletika sportida Bernard Lagat (AQSh), Rashid Ramzi (Baxrayin), Xayle Gebreselase (Efiopia) Abubakyer Kaki (Sudan), hozirgi kunda yengil atletika sportini rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Dunyoning o'rta va uzoq masofalarga sportchilarni tayyorlovchi yetakchi murabbiylaridan, AQShlik E. S. Bill Xays, yangi zellandiyalik Kennet Boun, Artur Lidyand, avstraliyalik Persi Cherutti, vengeriyalik Gabero Gero, finlyandiyalik Denis Yoxonson va Armas Valste, lyuksemburglik Valdemar Gershler, gresiyalik Missalides Simatek, angliyalik Djon Limure, rossiyalik G.I. Nikiforov, A.M. Evstatratovlarning yodga olish o'rinlidir. Yuqorida nomlari zikr etilgan murabbiylar Olimpiada chempionlari, jahon rekordchilarini tarbiyalab, jahon sportiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019 yil 23-avgust kuni "Maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur" ma'ruzasi // Ma'rifat gazetasi 2019 yil 31-avgust soni

2. Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonunning yangi tahriri 2015 y. 5 sentyabr.

3. X.Rofiyev. Yengil atletika va uni o'qitish metodikasi. Toshkent 2012 y
4. A. Normuradov, "Yengil atletika", Toshkent – 2005-y;
5. Fayziyev M. A., Qorayev A. F. Refleksiv videotrenglar asosida talabalarni bilimlarini rivojlantirish // " USA" INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE TOPICAL ISSUES OF SCIENCE. – 2023. – T. 8. – №. 1.
6. Jabbarova H. PHILOSOPHICAL CONCEPTS OF MASCULINITY AND FEMININITY IN ANCIENT PHILOSOPHY //International Journal of Engineering Mathematics (Online). – 2024. – T. 6. – №. 1.
7. Qorayev A. THE METHODOLOGY OF CREATING A REFLECTIVE VIDEO TRAINING ON THE SCIENCE OF" MOTHER LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY" IN HIGHER EDUCATION //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2024. – T. 4. – №. 9. – C. 106-111.
8. Toshturdiyevna K. D., Asfandiyarovych F. M. FORMATION OF THE SPIRITUAL HERITAGE OF TEMURY QUEENS IN SCHOOL GIRLS ON THE BASIS OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES //International Conference on Research Identity, Value and Ethics. – 2023. – C. 47-51.
9. Shadiev R. et al. Comparing effects of STR versus SELT on cognitive load //2019 Twelfth International Conference on Ubi-Media Computing (Ubi-Media). – IEEE, 2019. – C. 284-287.
10. Baigunissova G. et al. Flipped classroom method in higher education: a case of Kazakhstan //International Conference on Innovative Technologies and Learning. – Cham : Springer Nature Switzerland, 2023. – C. 232-241.
11. Shadiev R., Shadiev N., Fayziyev M. Facilitating online cross-cultural learning project with speech-enabled language translation technology //2020 IEEE 20th International Conference on Advanced Learning Technologies (ICALT). – IEEE, 2020. – C. 223-225.
12. Lutfullaev, M. H., and M. A. Fayziyev. "Basics of the Internet." (2001).
13. Sarxadjanova I., Fayziyev M. UMUMIY PEDAGOGIKA FANINI O'QITISHDA TUSHUNCHALARNING MANTIQUIY SXEMASIDAN FOYDALANISH //EDUCATION AND RESEARCH IN THE ERA OF DIGITAL TRANSFORMATION. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 616-621.

14. Rustam S. et al. Transforming language and cultural learning in virtual reality with 360-degree video technology //Proceedings of the International CALL Research Conference. – 2024. – T. 2024. – C. 235-246.

15. Asfandiyorovich F. M., Sadikovich K. N., Ilkhomovich T. N. Shaping Students' Creative Talents through the Study of Information Technology //Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry. – 2021. – T. 12. – №. 10.

**BO'LAJAK PEDAGOGLARNING TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

Avazov G'oyibnazar Berdiyevich

Termiz davlat pedagogika instituti

Texnologiya va geografiya kafedrası

o'qituvchisi

Xushboqov Xumoyun Alisherovich

Texnologik ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqola ta'lim jarayonlarida pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirish muammosiga bag'ishlangan. Unda texnologik yondashuv asosida pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirish muammosi o'rganilib, pedagog texnologik kompetentligining asosiy mezonlari va darajalari ochib berilgan. Shuningdek maqolada pedagog texnologik kompetentligining ta'lim sifati bilan bog'liqligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, kompetensiya, texnologik yondashuv, pedagog texnologik kompetentligining mezonlari, pedagog texnologik kompetentligining darajalari, ta'lim sifati, texnologik bilimlar, ijodkorlik qobiliyatlari, loyihalash qobiliyatlari, tahlil qilish qobiliyatlari.

Mamlakatimizda shakllanib ulgurgan uzluksiz ta'lim tizimiga texnologiya va texnologik yondashuv atamalarining kirib kelishi zamonaviy ta'lim sohasidagi dolzarb voqelik hisoblanadi. Texnologik yondashuv tushunchasi rivojlangan mamlakatlar pedagogikasi bilan bir qatorda milliy pedagogikamizda ham o'zining muhim o'rniga ega. Ta'limda kompetentli yondashuv nazariyasi, kompetentlik, kasbiy kompetensiya, pedagogik kompetentlik, texnologik kompetentlik, texnologik ta'lim masalalari N.A.Muslimov, A.X. Mahmudov, Z.T.Raximov, L.R.Zaripov, A. B. Muhamadaliev va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. MDH davlatlaridan V. P. Bespalko, V. I. Bogolyubov, T. A. Ilina,

M. V. Klarin, A. Ya. Savelev, G. K. Selevko kabi olimlar o'z ilmiy taqiqotlarini aynan pedagogning texnologik kompetentligi muammolarini tadqiq qilishga bag'ishlanganlar. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan bir shuki, u ta'lim jarayonida belgilangan maqsadlarga to'liq erishishni kafolatlash bilan bir vaqtda ta'lim jarayonida olinadigan natijalarni yuqori aniqlikda bashorat qilish va pedagogik jarayonlarni boshqarishga imkon beradi.

Texnologik vositalar yordamida ta'lim olib yuqori natijalarga erishgan pedagog o'zining mustaqil ijodkorligiga va talabalarning har tomonlama rivojlanishiga ko'proq e'tibor berishga qodir bo'ladi [7].

Ta'lim jarayonlariga texnologik yondashuvga asoslangan ilmiy- tadqiqot ishlarida pedagogning texnologik kompetentligi deyilganda asosan pedagogning talabalarga ta'lim va tarbiya berish uchun zarur bo'lgan pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirganligi tushunilgan. Hozirgi kunda bu sohada tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilar pedagogning texnologik kompetentligiga bunday nazar bilan qarash zamonaviy pedagogning umumiy kasbiy kompetentligi haqidagi tasavvurlarni sezilarli darajada torayishiga olib keladi deb hisoblaydilar.

Ta'limga texnologik yondashuvni ta'lim jarayonlariga pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali tadqiq qilish pedagog texnologik kompetentligining mohiyatini quyidagicha "Ta'lim jarayonlarida pedagogik texnologiyalarni qo'llay olish, pedagog tomonidan bajariladigan operatsiyalar va harakatlar ketma- ketligini maqsadga yo'naltirib pedagogik jarayonlarni loyihalashni amalga oshira olish" deb talqin qilish mumkin [8]. "Texnologik kompetentlik" tushunchasi hozirgacha yagona bir ta'rifga ega emas. Fanda bu tushunchaning ta'rifini ochib berish ustida A.A. Verbiskiy, N.N. Manko, Ye.I. Nikifirova, N.B. Pikatova, D.V. Sannikov, V. E. Shteynberg, L.A. Yadvirshis kabi tadqiqotchilar izlanishlar olib borganlar.

Bu mualliflar tomonidan taklif etilgan texnologik kompetentlik tushunchasi ta'riflar aksariyatining negizida ushbu kompetensiyaga ega bo'lgan pedagog faoliyatining samaradorligi, natijadorligi va yuqori darajadagi ish unumdorligi g'oyasi yotadi.

Yu. Arutyunova, V. Bezrukova, V Bespalko, V. Ivanchenko, D. Kavtaradze, V. Pityukov, L. Podymova, Ye. Polat, V. Serikov, V. Simonenko va V. Slastyonin kabi tadqiqotchilar esa pedagogning texnologik kompetentligi uning nazariy va amaliy tayyorgarligining birligini ifodalaydi deb hisoblaydilar [9] .

Biz ushbu tadqiqotimizda N.N. Manko, Ye. I. Nikiforova, Ye.V. Kozina va

S. V. Dudovalarning tadqiqotlariga tayangan holda pedagogning texnologik kompetentligini zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligi ajralmas qismi sifatida talqin qilamiz va bu tushuncha texnologiyalar haqidagi bilimlarga ega bo'lish texnologiyalar, metodlar, vositalar, faoliyat shakllarini va ularni qo'llashni bilish hamda ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etish orqali ifodalanadi. Bunda pedagogning ijodkorlik, loyihalash va tahliliy ko'nikmalari namoyon bo'ladi hamda u o'zining foyiati natijalariga nisbatan tanqidiy yondashish qobiliyatlarini o'zlashtiradi.

Pedagog texnologik kompetentligining asosiy mezonlari va darajalari haqida fikr yuritar ekanmiz quyidagilarga to'xtalib o'tishimiz zarur. Pedagog kasbiy kompetentligining tarkibiy qismi sifatida texnologik kompetentlik

-pedagog texnologik kompetentligi komponentlari shakllanganligining emperik darajasi-bunda pedagogda aksariyat holatlarda pedagogik texnologiyalar haqida yanglish bilimlarga ega bo'lish, bilimlarning tizimlashmaganligi ko'zga tashlanadi, pedagogik faoliyat usul va uslublari hamda ular uchun motivlarning shakllanmaganligi orqali ifodalanadi.

Pedagog o'z faoliyatini ta'lim jarayonining mantiqiy yaxlitligiga mos kelmaydigan va ijodkorlik ko'rinishga ega bo'lmagan alohida harakatlar ko'rinishida amalga oshiradi. Pedagogda reflektiv-tahliliy ko'nikmalarning shakllanganlik darajasi juda past bo'ladi.

-pedagog texnologik kompetentligi komponentlari shakllanganligining nazariy darajasi-bunda pedagog umumiy pedagogik texnologiyalar, xususan aniq biror bir pedagogik texnologiya haqida juda sayoz bilimlarga ega bo'ladi.

Pedagog ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lgan pedagogik texnikalarning faqatgina ayrim usullariga qiziqishini namoyon etadi. Bunday darajani egallagan pedagog boshqa bir hamkasbi tomonidan namoyish etilgan harakatlarni mustaqil ravishda takrorlay olpdi.

Unda ta'lim faoliyatini tashkil etish va boshqarish bo'yicha yaxlit tizimlashgan tasavvurlar shakllanmagan bo'ladi, refleksiv-tahliliy komponent esa yuzaki darajada bo'ladi, natijalarni ta'minlovchi sabablar va bog'lanishlarni ichki tahlil qilish ko'nikmalari mavjud bo'lmaydi.

-pedagog texnologik kompetentligi komponentlari shakllanganligining algoritmlik darajasi-bu pedagogning pedagogik texnologiyalar nazariyasi haqidagi bilimlarni puxta egallaganligi va bu bilimlardan o'z faoliyatida oqilona qo'llay olishi orqali ifodalanadi. Bunday darajani egallagan pedagog mustaqil ravishda metodlarni, texnologiyalarni o'zlashtirib oladi va ularni muayyan fanni o'qitishga qaratilgan pedagogik faoliyatida safarbar eta oladi, lekin bu jarayonlarda metodlar va texnologiyalarni tanlashda qiyinchiliklarga duch keladi va fanni o'qitishda o'ziga nisbatan ishonchsizlik bilan haraktalanadi. Bunday ko'nikmalarga ega bo'lgan pedagog muayyan fanni o'qitishda faoliyatiga ijodiy yondashib o'z faoliyati algoritmini o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladi hamda sabab-oqibat bog'lanishlarini va o'zaro bog'lanishlarni aniqlay oladi va o'z faoliyati natijalarini to'g'ri tahlil qiladi.

-pedagog texnologik kompetentligi komponentlari shakllanganligining kreativ darajasi-bu darajani egallagan pedagog oldingi tavsiflangan darajalarni egallagan pedagoglardan texnologik yondashuv nazariyasi va amaliyoti hvidagi bilimlarni chuqur o'zlashtirgani bilan ajralib turadi.

U pedagogik jarayonning samaradorligini ta'minlovchi muhim shartlardan biri sifatida pedagogik texnologiyalarni ta'lim berish, ta'lim oluvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish vositasi deb hisoblaydi. Bunday pedagog ijodiy yondashish orqali texnologiyalarning tarkibiy komponentlarini o'zgartira oladi, alohida usul va metodlarni qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirishi mumkin, o'z ijodiy yondashuvlari samarasi o'laroq o'zining mualliflik texnologiyasini yaratishga ham qodir.

Ta'lim jarayonida kechayotgan o'zaro ichki va tashqi bog'lanishlarni tahlil qila oladi va o'zining pedagogig faoliyatini baholash bilan birga vaziyatning rivojlanish tendensiyasini bashorat ham qila oladi. Tadqiqotimizga oid adabiyotlar tahlili natijasida quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin, pedagogning texnologik kompetentlik darajasi quyidagi mezonlar orqali ifodalandi:

-maqsadga yo'naltirilganlik (fan xususiyatidan va qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib);

-ijodiy yondashuvga asoslanish;

-texnologiklik (qo'llaniladigan pedagogik texnika darajasiga ko'ra);

-optimallik (o'qitishning samarali vositalarini to'g'ri tanlash);

Pedagog texnologik kompetentligi va ta'lim sifatining o'zaro bog'liqligiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, dastlab "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini o'zaro farqini anglab yetishimiz lozim, chunki ta'lim jarayonlariga kompetentli yondashuvning mohiyatini anglab yetish uchun bu tushunchalarning ta'rifini va ular o'zaro qanday nisbatlarga ega ekanligini oydinlashtirishimiz kerak bo'ladi.

Biz kompetentlikni kompetensiyalardan tarkib topgan murakkab bir tushuncha sifatida talqin etamiz. Kompetentlik va kompetensiya tushunchalariga bunday yondashuv kompetentli yondashuvning asosiy g'oyasini ifodalaydi, uning maqsadlarga va natijalarga erishishga yo'naltirilganligini belgilab beradi.

Demak kompetentlik kompetensiyalardan tarkib topadi, kompetensiyalar orqali namoyon bo'ladi va kompetensiyalar yordamida shakllanadi. Pedagog qanchalik ko'p kompetensiyalarni puxta o'zlashtirsa uning kompetentlik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi [6].

Pedagogning kompetentligini yuqori natijalarga erishishni ta'minlovchi pedagogik faoliyatni amalga oshirish-ta'lim jarayonlarida yuzaga keluvchi muammolarini samarali bartaraf etish qobiliyat deb tushunish mumkin. Bundan tashqari kompetentlik bu pedagogning murakkab vaziyatlarda oqilona faoliyat yuritish qobiliyati deyish ham mumkin.

Vaziyat qanchalik murakkab bo'lsa pedagogning bunday qobiliyat (kompetentligi) darajasi shunchalik yuqori bo'ladi [10].

O'z navbatida shuni ham aytib o'tishimiz joizki pedagogning kompetentligi ta'lim oluvchilar bilan bevosita muloqotlar jarayonida mazmun kasb etadi, ya'ni:

-pedagogning kompetentligi ta'lim oluvchilar bilan muloqot jarayonlarida namoyon

bo‘ladi;

Shuni xulosa qilib aytish mumkinki pedagogning kompetentlik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa ta‘lim sifati shunchalik yuqori bo‘ladi, zero samarali pedagogik jarayonlar va ta‘lim vositalari ta‘lim oluvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning muhim majburiy shartlaridan biri hisoblanadi. Demak pedagogning texnologik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish yuqorida keltirilgan shartlarning bajarilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurazakov, A. (2020). "Ta'limda kreativlik va innovatsion yondashuvlar." O‘zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.
2. Isroilov, I. (2019). "O‘qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish." O‘zbekiston Milliy Universiteti.
3. Karimov, S. (2021). "Zamonaviy ta'limda kreativ fikrlash." Ta'lim va innovatsiyalar jurnali, 3(2), 45-50.
4. Murodov, B. (2022). "Texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda kreativlik." O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi.
5. Qodirov, R. (2020). "Kreativ kompetentlik va uning ta'lim jarayonidagi o‘rni." Pedagogika va psixologiya jurnali, 4(1), 12-18.
6. Avazov G'.B (2024) Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatiga tayyorlashda kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi. So‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi 7-jild 1-son respublika ilmiy-uslubiy jurnali
7. Avazov G'.B (2024) Bo ‘lajak “texnologiya” fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatiga tayyorlashda kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi “PEDAGOGS” international research journal
8. Avazov G'.B (2024) Bo‘lajak “texnologiya” fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatiga tayyorlashda kreativ kompetentligini rivojlantirish O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va 30-son ilmiy tadqiqotlar jurnali

9. Avazov G'.B (2024) Methodology of creative competence development

in the preparation of future technology teachersfor their professional activity British Journal of Global Ecology and Sustainable Development

10. Avazov G'.B (2023) Педагогико-психологическая характеристика методов развития творческой компетентности при подготовке будущих учителей технологии к профессиональной деятельности Международный научный журнал № 16 (100), часть 1 «Научный импульс»

SIMSIZ SENSOR TARMOQ TUZILMASINI TANLASH USULLARI VA ALGORITMLARI.

Shaydullayev Jahongir Qudrat o'g'li

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Shaydullayevjahongir579@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada Simsiz sensor tarmoqlar (SST) taqsimlangan va atrof-muhit xarakteristikalarini monitoring qilish va unda joylashgan ob'ektlarni boshqarish uchun mo'ljallangan ko'plab simsiz sensor tugunlardan tashkil topgan o'z-o'zidan tashkil etiladigan tarmoqlar, Ko'plab simsiz sensor tugunlar cheklangan resurslar – batareya zaryadi, xotira hajmi, hisoblash imkoniyatlari va boshqalarga ega bo'lgan juda kichik qurilmalar Sensor tugunlarni tekislikka joylashtirish haqida fikr yuritilgan.

Аннотация: в данной статье Беспроводные сенсорные сети (БСС) представляют собой распределенные и самоорганизующиеся сети, состоящие из множества беспроводных сенсорных узлов, предназначенных для мониторинга характеристик окружающей среды и контроля расположенных в ней объектов. Многие беспроводные сенсорные узлы представляют собой очень маленькие устройства с ограниченным ресурсом - аккумулятором. заряд, объем памяти, вычислительные возможности и т. д. Считается, что сенсорные узлы располагаются в плоскости.

Abstract: in this article, Wireless Sensor Networks (WSNs) are distributed and self-organizing networks consisting of many wireless sensor nodes designed for monitoring environmental characteristics and controlling objects located in it, Many wireless sensor nodes are very small devices with limited resources - battery charge, memory capacity, computing capabilities, etc. Sensor nodes are thought to be placed in a plane.

Kalit so'zlar: LEACH algoritmi, PEGASIS algoritmi (Power-Efficient Gathering in Sensor Information Systems), TEEN (Threshold-sensitive Energy Efficient Protocols) algoritmi.

Ключевые слова: Алгоритм LEACH, алгоритм PEGASIS (энергетически эффективные системы сбора информации о датчиках), алгоритм TEEN (пороговые энергоэффективные протоколы).

Keywords: LEACH algorithm, PEGASIS algorithm (Power-Efficient Gathering Sensor Information Systems), TEEN (Threshold-sensitive Energy Efficient Protocols) algorithm.

Hozirgi vaqtga kelib, SSTda klaster bosh tugunini tanlash yetarlicha ko'p algoritmlari ishlab chiqilgan. Ta'kidlash kerakki, istalgan sensor tarmoq uchun bosh tugunini tanlash optimal algoritmi o'ta katta sensor tarmoqlar ilovalari soni, shuningdek bu turmoqlar tugunlarini n-o'lchamli makonda joylashtirishning turli tumanligi tufayli ishlab chiqilishi ehtimoli katta emas.

Shunga qaramay, bosh tugunini tanlash algoritmlarini tahlil qilish ularni tasniflashga imkon beradi.

Birinchi navbatda SSTda bosh tugunni tanlash algoritmlari markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan algoritmlarga bo'linadi.

Bosh tugunini tanlash markazlashtirilgan algoritmlari energiya iste'moli bo'yicha qat'iy cheklanishlarga bog'liq bo'lmagan tarmoq qandaydir boshqarish elementida hisoblash imkoniyatlarining bo'lishini ko'zda tutadi.

Bosh tugunini tanlash markazlashtirilmagan algoritmlari bosh tugunini tanlash protsedurasi markazlashtirilgan aralashuvsiz sensor maydonning o'zi doirasida bo'lib o'tishini ko'zda tutadi. Bunda sensor tarmoqda cheklangan energetik resurslarning ozmi-ko'pmi sezlarli sarflarini ishlatishi kerak bo'lmaydigan protseduralarning o'zini murakkabligi bo'yicha juda qat'iy talablar qo'yiladi.

Bosh tugunni tanlash markazlashtirilgan algoritmiga misol Voron diagrammasidan foydalanish bilan bosh tugunni tanlash algoritmi xizmat qilishi mumkin. Uning eng ma'lum bosh tugunni tanlash markazlashtirilmagan algoritmi - LEACH algoritmi (S#.NET tizimida modellashtirish natijalari bo'yicha) qaraganda afzalligi tarmoqning uzoqroq yashash siklini ta'minlash uchun SSTning energetik samaradorligini oshirish va eng yaxshi qamrab olishni ta'minlashdan iborat .

O'xshash tadqiqotlar N. A. Al-Kadami tomonidan o'tkazilgan. [4] ishda tekislikdagi stasionar tugunlarga ega bo'lgan simsiz sensori tarmoqlar uchun marshrutlashtirish va o'z-o'zidan tashkil etish algoritmlarini tahlil qilish va baholash amalga oshirilgan

SSTning ishlash parametrlari sifatida sensor tarmoqning stabil ishlash davomiyligi, birinchi va oxirgi sensor tugunlarning ishdan chiqishigacha vaqt davrlarining davomiyligi, qoldiq energiya qaraladi. Algoritmlarni taqqoslash gomogen va geterogen tarmoqlar uchun amalga oshirildi.

Yuqorida bayon etilganlardan ko'rinadiki, tadqiq qilinadigan SST modellari SSTning maksimal yashash siklini ta'minlash va tekislikda tugunlarni bir tekis taqimlash uchun uning tugunlari energetik samaradorliklari nuqtai nazaridan ko'rib chiqildi.

LEACH algoritmi umuman energetik samaradorlik nuqtai nazaridan juda samarali algoritm hisoblanadi, lekin shu bilan bir vaqtda LEACH algoritmi klasterning bosh tugun sifatida "yaxshi" sensor tugunni tanlanishi bo'yicha kafolatlarni bermaydi. Binobarin, LEACH algoritmidan sensor tugunning joriy energetik holati haqida ko'zda tutish yo'q, u holda bosh tugun sifatida qoniqarsiz energetik xarakteristikalariga ega bo'lgan klasterning ancha tanlanmagan a'zosi tanlanishi mumkin.

PEGASIS algoritmi (Power-Efficient Gathering in Sensor Information Systems) – quvvat bo'yicha samarador sensorlardan ma'lumotlarni to'plash tizimi simsiz sensor tarmoqlarni klasterli tashkil etishga to'g'ridan-to'g'ri munosabatga ega emas.

PEGASIS algoritmi LEACH algoritmi asoslangan sensor tugunlarni ketma-ket zanjirda tashkil etish va klasterli SSTlarda ko'zda tutilganidek, zanjirdagi birinchi tugunni davriy yangilashni ko'zda tutadi.

PEGASIS algoritmidan zanjir sensor tugunlar faqat yaqindagi tugunlar bilan o'zaro ta'sirlashishi va faqat tugunlardan biri sensor tarmoqning ishlash intervallaridan har birida bazaviy stansiyaga ma'lumotlarni uzatuvchi hisoblanadigan tarzda shakllantiriladi.

Zanjirni qurish ma'lumotlar uzatiladigan masofani minimallashtirishga imkon beradi, zanjirdagi birinchi tugunni rotatsiyalash esa alohida sensor tugunlarning ishlash davomiyligini oshiradi. Bunday yondashish simsiz sensor tarmoqlar uchun umumiy energiya iste'molini kamaytirish va umuman SSTning ishlash davomiyligini oshirishga imkon beradi.

PEGASIS algoritmi LEACH algoritmi qaraganda sensor tarmoqlar va topologiyalar 1, 25, 50 va 100 % tugunlarining ishdan chiqishiga nisbatan 100–200 % ga yaxshi. Lekin PEGASIS algoritmining zanjiri ma'lumotlarni uzatishda qo'shimcha kechikishlarni vujudga keltiradi.

Bundan tashqari, PEGASIS algoritmidagi topologiyani dinamik o'zgartirish har bir tugun ma'lumotlarni uzatish mashrutlarini hisoblash uchun o'z yaqinidagi qo'shni tugunlarning energetik imkoniyatlari haqida bilishini talab qiladi. Bu paketning sarlavhasini sezilarli murakkablashtiradi va bundan tashqari, katta yuklamalar sharoitlarida sensor tarmoqning ishlashida muammolarga olib keladi.

TEEN (Thershold-sensitive Energy Efficient Protocols) algoritmining ishlashi quyidagi tarzda quriladi. Yangi klasterni tashkil etishda bosh tugun tarmoq tugunlariga “qat’iy” va “yumshoq” bo’sag’a atributi qiymatlarini uzatadi.

Tugun atributi “qat’iy” bo’sag’aning absolyut qiymatiga yetganda tugun ma'lumotlarni uzatadi, bunda “qat’iy” bo’sag’aning qiymati tugun xotirasida saqlanadi. “Yumshoq” bo’sag’a, agar bu qiymat qandaydir qiymatga o’zgarsa tugundan bosh tugunga ma'lumotlarni uzatishga imkon beradi.


Yangi raundda, ya’ni klasterning har bir o’zgarishida “qat’iy” va “yumshoq” bo’sag’alar atributlari yangidan uzatiladi va tarmoqlarning maqsad funksiyasiga bog’liq ravishda bu atributlarni nazorat qilish va o’zgartirish mumkin.

Ta’kidlash kerakki, bosh tugunni tanlash algoritmlari va marshrutlashtirish algoritmlari turli tushunchalar hisoblanadi. Bosh tugunni tanlash algoritmlari ishlashning o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqish bilan SST klasterining ishlash raundida bosh tugunni aniqlaydi, ya’ni haqiqatda xizmatlarni ko’rsatish mumkin bo’ladigan tarmoqni quradi, ma'lumotlarni (xizmatlarni) uzatish esa marshrutlashtirish algoritmlari orqali to’g’ridan-to’g’ri tashkil etiladi, ular o’z navbatida, uzatiladigan trafik va bu trafikka xizmat ko’rsatishga qo’yladigan talablarga bog’liq bo’ladi.

Bundan tashqari, ko’rib chiqilgan modellar tugunlarni tekislikda bir tekis taqsimlanishini ko’zda tutadi.

Amalda tugunlarni tekislikda taqsimlanishi notekis bo’lishi mumkin.

1- rasmda tekislikda sensor tugunlarni joylashtirishning turli variantlari tasvirlangan.



1- rasm. Sensor tugunlarni tekislikka joylashtirish variantlari

Tekislikda tugunlar notekis taqsimlanishida bosh tugunni tanlash va klasterlashtirish algoritmi masalasi yetarlicha bahsli bo‘ladi. Bu taqismlashning notekisligi va mos ravishda tugunlar orasidagi turli masofalar tufayli kelib chiqadi.

Taqsimlash zonasining markazida tugunlarning zichligi katta, tugunlar orasidagi masofa kichik bo‘ladi, aytish qiyin emaski, klasterlarni shakllantirish kam vaqtni oladi va tugunlar orasidagi masofa hisobiga xabarlarni yetkazish vaqt sezilarli kichik bo‘ladi.

Bu holda bosh tugunni tanlash algoritmi uzatiladigan trafikka xizmat ko‘rsatish bo‘yicha talablarga bog‘liq bo‘ladi. Lekin tugunlar orasidagi uzatish masofasi ortganda, binobain notekis ortganda, mos ravishda klasterlarning mumkinligi uning shakllanishi kabi muammo bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Н.А. Агафонов. Технологии беспроводной передачи данных ZigBee, WiFi, Bluetooth // «Беспроводные технологии», 2006.
- 2.М.П. Соколов. Программно-аппаратное обеспечение беспроводных сетей // «Компоненты беспроводных систем» 2004.
- 3.Н.А. Ковалевский, Т.А. Приходько. Разработка протокола для мобильных сетей и исследование его в среде NS2 // «Беспроводные технологии» 2013.
- 4.Т.Иссариякул, Е. Носсайн. Introduction to Network Simulator NS2. – New York.:Springer Science + Buisness Media, 2012. – 512p.
- 5.В.О. Варгаузин. Радиосети для сбора данных от сенсоров, мониторинга и управления на основе стандарта IEEE 802.15.4 // «Телемультимедиа», 2005

**MAQSUD SHAYXZODA O‘ZBEK VA OZARBAYJON XALQINING SERQIRRA
IJODKORI**

Toshkent davlat transport universiteti

Komilov Akrom Oybek o‘g‘li

Annotatsiya: Maqolada ikki yurt farzandi Maqsud Shayxzoda o‘zbek adabiyotining yuksalishiga qo‘shgan betakror ijodiyoti, shu bilan birga ikki xalqning asriy hamkorligi Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy kabi buyuklarning do‘stligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Nizomiy Ganjaviy, shoir, dramaturg, adabiyotshunos olim, tarjimon va pedogog, kalxo‘zchi, kim.

Ozarbayjon diyorida tug‘ilib, falakning gardishi bilan o‘zbek tuprog‘iga kelib qolgan Maqsud Shayxzoda mustabid tuzumning tazyiq va tahdidlariga qaramay, to‘lib toshib ijod qilgan, zamonaviy o‘zbek adabiy tili va adabiyoti taraqqiyotiga bebaho hissa qo‘shgan buyuk ijodkordir. U nafaqat shoir, dramaturg, adabiyotshunos olim, tarjimon va pedogoggina emas, balki tom ma‘noda mutafakkir siyma hamdir.

